

KONSEPTUAL KATEGORIYALARNI TADQIQ QILISHNING LINGVISTIK PARAMETRLARI

Sharipov Feruzjon Isor o'g'li

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti “Ingliz tilini o‘qitish metodikasi”
kafedrası o‘qituvchisi

ANNOTATSIYA Ushbu maqolada ingliz tilidagi xohish-istak kategoriyasining turli grammatik va sintaktik tizimlardagi ifodasi tahlil qilinadi. Xohish-istakni ifodalovchi mandativ, volitsional va qotgan istak turlari chuqur tahlil qilinadi. Istakning ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik va semantik asoslari o‘rganiladi.

Kalit so‘zlar: xohish-istak, sintaktik tizim, istak mayli, grammatik tahlil, ingliz tili, lisoniy kategoriyalar.

ABSTRACT This article analyzes the expression of the desire category in various grammatical and syntactic systems of the English language. The mandative, volitional, and formulaic types of desire are thoroughly examined. The lexical and semantic bases of desire in both English and Uzbek languages are also explored.

Keywords: desire, syntactic system, subjunctive mood, grammatical analysis, English language, linguistic categories.

Kirish

Xohish va istak kategoriyasi inson tafakkurining va unga muvofiq tildagi ifodalash vositalarining markaziy tushunchalaridan biridir. Ingliz tilida bu kategoriyaning ifodalanishi asosan istak mayli, "let" gap qurilmalari va modal fe‘llar orqali amalga oshiriladi. Bu usullar istak va orzuning turli kontekstlarda qanday ifodalanishini belgilaydi.

Ingliz tilida istak maylining muhimligi uning turli guruhlarida namoyon bo‘ladi. Mandativ istak mayli (mandative subjunctive) talabni bildirsa, volitsional istak mayli (volitional subjunctive) mavhum yoki noreal istaklarni ifodalaydi.

Qotgan istak mayli esa ko‘pincha diniy yoki qadimiy leksik konstruktsiyalarda uchraydi. Masalan, "God bless you" yoki "The Lord make his face shine upon thee" iboralari.

O‘zbek tilida esa istak gaplar ko‘pincha so‘zlovchining orzu yoki umidini ifodalaydi. Ushbu gaplarda "istamoq", "xohlamoq" kabi fe‘llar istakni aniqlab beradi. Masalan, "Shu bois ayol zoti hamisha boshida panohi bo‘lishini xohlaydi" degan jumlada istak leksikasi kontekst bilan uyg‘un holda yaqqol namoyon bo‘ladi.

Mazkur tadqiqot ingliz va o‘zbek tillaridagi istak gaplarning grammatik, leksik va sintaktik xususiyatlarini chuqurroq o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, har ikki tildagi istakning universal va o‘ziga xos jihatlarini yoritishga qaratilgan.

G‘arb tilshunoslari istak maylining ingliz tili rivojlanishidagi turli bosqichlaridagi holatini tahlil qilish natijasida ushbu mayl hozirgi ingliz tilida til rivojlanishining qadimgi bosqichidagi holatiga nisbatan kuchsizlashib, ifoda etish funksiyasi torayganligini ko‘rsatadilar (O. Yespersen, L. Berk, X. Fowler va boshqalar).

L. Berk hozirgi ingliz tilidagi istak maylining uch turini farqlaydi:

- mandativ istak mayli (mandative subjunctive);
- volitsional istak mayli (volitional subjunctive);
- qotgan istak mayli (formulaic subjunctive).

Birinchi turdagi istak mayli talabni ifoda etsa (/ suggest that he go. I insist that she come.), ikkinchi turdagi istak mayli mavhum, noreal tilakni ifodalaydi (/ wish I were a bird). So‘ngi turdagi istak mayliga L. Berk [1] so‘zlovchining istagi, tilagini bildiruvchi, ingliz tili rivojlanishining qadimgi va o‘rta bosqichlaridan shaklan o‘zgarmay saqlangan, asosan diniy mazmundagi iboralarni kiritadi (God bless you. The Lord make his face shine upon thee.).

Yuqorida tilga olingan tilshunoslarning xohish-istak kategoriyasini tahlil qilishga bag‘ishlab olib borilgan tadqiqotlaridan ko‘rinib turibdiki, ushbu kategoriya

ingliz tilining leksik, morfologik va sintaktik tizimlarida o‘z ifodasini topadi. Bizning nazarimizda keltirilgan ushbu holatlarda borliqqa nisbatan xohish, istak ifodalanadi. Zero, birinchi keltirilgan misolda so‘zlovchi o‘z yoshligiga qayta olmasligini anglasa-da, o‘n besh yoshli o‘smir bo‘lishiga nisbatan kuchli xohishini bildiradi. Misol tariqasida keltirilgan ikkinchi gapda so‘zlovchi o‘tmishidagi vaziyatda ran obyekti bo‘lgan nusxa ma’lum ish-harakatni amalga oshirishi lozimligiga nisbatan istagini ifodalagan.

O‘zbek tilida istak gaplar S. Solixo‘ayeva [3] tomonidan emotsional gaplarning bir turi sifatida qisman o‘rganilgan. Olimaning fikricha, istak gaplarning ikki xil ko‘rinishini ajratish mumkin:

- so‘zlovchining ushalishi qiyin bo‘lgan orzu-istagini ifodalovchi istak gaplar;
- so‘zlovchining ushalishi mumkin bo‘lgan yoki umid qilsa bo‘ladigan orzu-istagini ifodalovchi gaplar.

D. Lutfullayeva [4] esa istak gaplarda quyidagilar aks etishini qayd etadi:

- so‘zlovchining yuzaga chiqmagan harakatning bajarilish yoki bajarilmasligini istashi;
- so‘zlovchining o‘zi va tinglovchiga oldindan ma’lum bo‘lgan amaldagi harakatning aksini bajarilish-bajarilmasligini istashi;
- so‘zlovchining obyektiv olamda muayyan narsa-predmetning mavjud yoki yo‘q bo‘lishini istashi;
- so‘zlovchining obyektiv olamda mavjud bo‘lgan narsa-predmetning mavjud bo‘lishini yoki aksincha, voqelikda mavjud bo‘lmagan narsa-predmetning mavjud bo‘lishini istashi, orzu qilishi kabi kommunikativ niyatda aks etishi.

Ko‘rinadiki, istak gaplar so‘zlovchining istak-xohishi, orzu va umidining nutqdagi ifodasi sifatida yuzaga chiqadi. O‘zbek tilida leksik vositalar yordamida

shakllangan istak bildiruvchi gaplarning semantik asosini istak ifodalovchi leksemalar tashkil qiladi. Istak ifodalovchi leksemalarga istamoq, xohlamok, tusamoq kabi fe‘llar kiradi. Bu leksemalarning lug‘aviy ma‘nosida istak semasi mujassamlashgan bo‘ladi. Mazkur semaning real ifodasi muayyan kontekstda namoyon bo‘ladi. Masalan: ...Shu bois ayol zoti hamisha boshida panohi bo‘lishini xohlaydi. ("Oydinda yurgan odamlar")

Ushbu gapda xohlaydi leksemasi orqali so‘zlovchining istak-xohishi ifodalangan. Mazkur leksemaning gapda muayyan ish-harakat ma‘nosini anglatuvchi leksema bilan bog‘lanib kelishi natijasida so‘zlovchining istagini ifodalovchi hamda bevosita obyektiv voqelik bilan bog‘langan qo‘shimcha axborot bitga gapga birlashgan.

Adabiyotlar:

1. Berk, L. "Grammatical Categories of Modern English." – Cambridge: Cambridge University Press, 1985.
2. Solixo‘ayeva, S. "Emotsional Gaplar va Ularning Lisoniy Xususiyatlari." – Toshkent: Fan, 2001.
3. Lutfullayeva, D. "Istak Gaplarning Semantik Tahlili." – Toshkent: Sharq, 2008.
4. Palmer, F. R. "Mood and Modality." – Cambridge: Cambridge University Press, 2001.